


Mavzu: Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari

Aa Bōsaḡada ōtirar kampir,
Qarshisida – teshik toḡora.*

*bo'sag'a – ostona



1-mashq. Chizmani o'rganib, xulosa chiqaring. Misollar keltiring.



- Uy yonida mehmonxona bor.
(his-hayajonsiz, darak gap)
- Men – begoyim bo'lishni istayman!
(his-hayajonli, buyruq-istak gap)
- Nima kerak senga, chol bobo?
(his-hayajonsiz, so'roq gap)





Darak gap, so'roq gap, buyruq-istak gaplarga so'zlovchining his-hayajoni qo'shilishi natijasida **his-hayajonli (undov) gaplar** hosil qilinadi. Gap oxiriga **undov belgisi** qo'yiladi.

Masalan: Bugun yaxshi baho oldim! (*his-hayajonli darak gap*)
Dalada qancha odam bor! (*his-hayajonli so'roq gap*)
Qani endi, A'zamjon ham shunaqa aqli bo'lsa edi! (*his-hayajonli istak gap*)

So'zlovchining hayajoni qo'shilmagan darak, so'roq, buyruq-istak gaplar **his-hayajonsiz gaplar** deyiladi.



2-mashq. Gaplarning maqsadiga ko'ra turlarini aniqlang.

1. Har bir qush o'zi uchun qulay joyga in quradi
 2. Yurtimizdagi qadimiy maskanlarga sayohatga borganmisiz
 3. Sinfxonasini toza saqlab, deraza tokchasidagi gullarga suv quyding
 4. Barcha o'quvchilar a'lo baholarga o'qisin⁴
- Tinish belgilaridan mosini qo'yib, ko'chiring.



3-mashq. She'rni ifodali o'qing. So'roq gaplarni ko'chiring. Yozgan gaplaringizni his-hayajon bilan o'qing.

Koptok talashib...

Koptok o'ynardi Karim,
Janjal chiqardi Salim.
Koptogin tanib qolib,
Karimga shovqin solib,
Boshladi g'idi-bidi:
– Koptok meniki, – dedi.
Keyin shapaloq tortdi,
Karimni qattiq turti.

Do'stlar o'rtaga tushdi,
Salimjonga deyishdi:
– Nega urasan uni?
– Nega turtasan uni?
– Bo'laveradi ursam,
Karim o'zimning ukam, –
Deya Salim taltaydi.
U haqmi? Kim aytadi?

E'tibor Oxunova



4-mashq. Rebusda yashiringan so'z birikmasini toping. Shu so'z birikmasi ishtirokida darak, buyruq-istak va so'roq gaplar tuzing.



5-mashq. Matnni o'qing. Adashib qolgan tinish belgilarini gaplarning maqsadiga ko'ra o'z o'rniga qo'yib, ko'chiring.

Kimga salom berish kerakligini bilasizmi. Kim oldin salom berishi lozim! Ko'pchilikka yolg'iz kishi salom beradi? Otliq yoki mashinadagi kishi piyodaga salom berishi kerak? Yurgan kishi o'tirganga, o'tirgan yotgan kishiga salom beradi! O'zingizdan kattaga salom berishni unutmang?



6-mashq. Ko'chiring. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini aniqlang.

Kuz tarovati

Kuz tabiatning eng go'zal va saxovatli fasli. Keling, aziz bola-jonlar, uning betakror tarovatidan birgalikda bahramand bo'laylik! Hech oltinrang barglarni terib, chiroyli guldasta yasaganmisiz?

Dam olish kuni akam bilan uyimiz yonidagi bog'ga bordik.

Bog'dagi pishgan mevalarni terishga bog'bon amakiga yor-damlashdik. Mehnatimizdan quvongan mehribon bog'bon amaki-ni samimiy olqishlari-yu maqto-vlariga sazovor bo'ldik. Qalbimiz quvonchga to'ldi. Eh, kuz fasli qanday ajoyib!

- Ajrati ko'rsatilgan gapni gap bo'laklari asosida tahlil qiling.

